

**SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.26/27.02.2020.T.109.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA  
BIR MARTALIK KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**KULMURADOV DILSHOD ISTAMOVICH**

**GENERATIV SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA BO‘LAJAK  
MUHANDISLARNI ADAPTIV LOYIHALASH KOMPETENSIYASINI  
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**13.00.02-Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika fanlari)**

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasি**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Contents of the abstract of the doctor of sciences (DSc)**

**Kulmuradov Dilshod Istamovich**

Generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish ..... 3

**Кулмурадов Дилшод Истамович**

Разработка технологии формирования адаптивной проектировочной компетенции будущих инженеров с использованием генеративного искусственного интеллекта ..... 33

**Kulmuradov Dilshod Istamovich**

Developing a technology for enhancing future engineers’ adaptive design competence through generative artificial intelligence ..... 67

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 73

**SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.26/27.02.2020.T.109.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA  
BIR MARTALIK KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**KULMURADOV DILSHOD ISTAMOVICH**

**GENERATIV SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA BO‘LAJAK  
MUHANDISLARNI ADAPTIV LOYIHALASH KOMPETENSIYASINI  
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**13.00.02-Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika fanlari)**

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.DSc/Ped1298 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning web-sahifasida ([www.samdaqu.edu.uz](http://www.samdaqu.edu.uz)) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lif portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Ximmataliyev Do'stnazar Omonovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Raximov Zokir Toshtemirovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Kuziev Abdumurod Urakovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Muslimov Sherzod Narzulla o'g'li**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat transport universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.26/27.02.2020.T.109.01 – raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "23" dekabr soat 14 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:140147, Samarqand shahri, Lolazor ko'chasi, 70-uy. Tel.:(+99866) 237-15-93, faks: (+99866) 237-26-30; E-mail: samdaqu@edu.uz) Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining kichik faollar zali.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№249 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140147, Samarqand shahri, Lolazor ko'chasi, 70-uy. Tel.:(+99866) 237-15-93, faks: (+99866) 237-26-30;

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "4" dekabr kuni tarqatildi.  
(2025-yil "5" dekabr 18 - raqamli reestr bayonnomasi).



S.M.Boboyev  
Ilmiy darajalar beruvchi  
bir martalik ilmiy kengash raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

R.M.Maxmudov  
Ilmiy darajalar beruvchi  
bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Sh.Z.Taylanova  
Ilmiy darajalar beruvchi  
bir martalik ilmiy kengash qoshidagi  
bir martalik ilmiy seminar raisi,  
pedagogika fanlari doktori, professor

## **KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Jahon bo‘ylab hozirgi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va generativ sun’iy intellekt (GSI) tizimlarining (ChatGPT, DALL-E, Midjourney va boshqalar) ta’lim sohasiga kirib kelishi muhandislik ta’limida tub, sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab berdi. GSI texnologiyalari nafaqat muhandislik jarayonlarini avtomatlashtirish, balki talabalarning kreativ fikrlash, adaptiv loyihalash va muammolarni noodatiy hal etish qobiliyatlarini shakllantirish uchun ilgari mavjud bo‘limgan imkoniyatlarni yaratmoqda. Rivojlangan davlatlar amaliyotida bu texnologiyalar muhandislik dasturlarida adaptiv ta’lim tizimlarini joriy etish, talabalarning individual xususiyatlariga mos o‘qitish metodlarini ishlab chiqish va loyihalash kompetensiyasini zamonaviy vositalar orqali rivojlantirishda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Technical University of Munich (TUM, Germaniya), Carnegie Mellon universiteti (AQSh) va boshqa nufuzli ta’lim muassasalari o‘z dasturlarida generativ sun’iy intellekt vositalarini muhandislik loyihasini o‘qitishda faol qo‘llayapti. Bu jarayon bo‘lajak muhandislarning loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish muammolarni innovatsion yechish va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Dunyo bo‘ylab muhandislik sohasidagi mutaxassislar uchun loyihalash kompetensiyasi XXI asr talablariga mos ravishda yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. An’anaviy ta’lim usullari zamonaviy texnologik rivojlanish sur’atlariga mos kelmay qolgan vaziyatda, adaptiv ta’lim texnologiyalari orqali har bir talabaning individual imkoniyatlari va o‘rganish tezligiga moslashtirilgan ta’lim jarayonini tashkil etish zarurati paydo bo‘lmoqda. Generativ sun’iy intellekt yordamida loyihalash jarayonida real vaqtda maslahat berish, takliflar taqdim etish va xatolarni darhol tuzatish imkoniyati mavjud. Bu texnologiyalar talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatini oshirish, murakkab muhandislik masalalarini bosqichma-bosqich yechishga o‘rgatish va professional faoliyatga tayyorlashda o‘ziga xos pedagogik muhit yaratadi. Shuningdek, har bir talabaning bilim darajasi, o‘rganish uslubi va qiziqishlariga mos keluvchi shaxsiylashtirilgan ta’lim yo‘nalishlarini belgilash orqali ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Mamlakatimizda Yangi Renessans davri sharoitida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va zamonaviy kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan hozirgi davrda muhandislik ta’limini isloh qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi qarori asosida ta’limdan ishlab chiqarishgacha bo‘lgan yaxlit zanjir yaratish va axborot texnologiyalari sohasida ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash vazifasi belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirishda generativ sun’iy intellekt texnologiyalarini muhandislik ta’limiga joriy etish va bo‘lajak muhandislarning adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2024-yilning avgustida mas’ullarga sun’iy intellekt texnologiyalari markazini tashkil qilish bo‘yicha topshiriq berdi.

Prezident sun’iy intellektni joriy etish strategiyasi va ikki yillik loyihalar dasturini ishlab chiqish vazifasini qo‘ydi. O’sha yilning oktyabrida “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi prezident qarori qabul qilindi. Mazkur tadqiqot mamlakatimiz oliy ta‘lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, muhandislik kadrlarining malaka darajasini oshirish va jahon andozalariga mos ta‘lim sifatini ta’minlash borasidagi strategik maqsadlarga erishishda nazariy va amaliy hissa qo‘shadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni va 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son “Axborot texnologiyalari sohasida ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 1 apreldagi PF-6198-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta‘lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagagi PQ-307-son “2022 - 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqotining natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

### **Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**

Ta‘lim jarayonida generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar, zamonaviy tadqiqotlar jahoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida olib borilgan, jumladan:

Texnika oliy ta‘lim muassasalarida muhandislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish masalalariga bog‘liq ilmiy izlanishlar jahoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida, xususan, Kaliforniya texnologiya instituti (AQSH), Karlsrue texnologiya instituti (Germaniya), Hindiston texnologiya instituti Dehli (IIT Dehli) (Hindiston), Kembrij universiteti (Angliya), Turin politexnika

instituti (Italiya), Kyoto universiteti (Yaponiya), Shimoliy Xitoy texnologiya universiteti (Xitoy), KAIST - Koreya ilg‘or fan va texnologiya instituti (Janubiy Koreya), ITMO universiteti (Rossiya)da olib borilmoqda.

Generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishga oid jahonda olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida bir qator, jumladan, muhandislarni tayyorlashda masofaviy ta‘limdan foydalanish metodikasi takomillashtirilgan (Kaliforniya texnologiya instituti); bo‘lajak muhandislarni kasbiy fanlardan mantiqiy va kreativ fikrlashini rivojlantirishda hamda va mustaqil ta‘limini takomillashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlari ishlab chiqilgan (Karlsrue texnologiya instituti); bo‘lajak muhandislarni, jumladan ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqarishga oid mutaxassislarini tayyorlashda didaktik ta‘minotli o‘quv voistalardan foydalanish shakl, usul va vositalari aniqlashtirilgan (Hindiston texnologiya instituti Dehli); muhandislarni tayyorlashda keys topshiriqlari va raqamli o‘quv vositalarni integratsiyasidan foydalanish metodikasi takomillashtirilgan (Kembrij universiteti); muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishda generativ sun’iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan (Turin politexnika instituti); muhandislarni tayyorlashning metodik tizimi sun’iy intellekt tizimlari asosida takomillashtirilgan (Kyoto universiteti); muhandislik fanlarini o‘qitish metodikasi va talabalarning muhandislikka oid kompetensiyalarini rivojlantirishda virtual ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlari ishlab chiqilgan (Shimoliy Xitoy texnologiya universiteti); texnika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning dasturlashga oid mantiqiy, algoritmik va Sun’iy intellekt, smart manufacturing, mechatronics bo‘yicha Osiyodagi eng kuchli universitetlardan (KAIST - Koreya ilg‘or fan va texnologiya instituti); Massachusetts texnologiya instituti bilan hamkorlikda tashkil etilgan, sun’iy intellekt va raqamli tizimlar bo‘yicha ta‘lim portallari va ta‘limga oid veb-saytlardan foydalanish mexanizmlari aniqlashtirilgan (ITMO universiteti).

Jahonda generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqot ishlari olib borilmoqda: generativ dizayn va topologik optimallashtirish texnologiyalariga asoslangan o‘quv modellarini joriy etish, sun’iy intellekt bilan integratsiyalashgan CAD/CAE muhitlarini o‘qitish, xususan SolidWorks, Fusion 360, Catia va Siemens NX kabi platformalarda generativ modellarni yaratish va ularni simulyatsiya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish; AI-Driven Digital Twin (raqamli egizak) texnologiyasiga asoslangan kompetensiyalarini shakllantirish; jarayonlarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni o‘rgatish metodikasini takomillashtirish.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda oliy ta‘lim tizimida turli soha mutaxassislarini tayyorlash jarayoniga raqamli ta‘lim texnologiyalarini joriy etish, axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish hamda sun’iy intellektga asoslangan o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar G.S.Ergasheva, M.H.Lutfillayev, M.M.Aripov, T.T.Kalekeyeva, M.R.Fayziyeva, Z.Botirova, B.A.Umarov, J.Qarshiyev, Sh.Musurmonova,

A.S.Axadova va E.D.Imomnazarovlar tomonidan chuqur o‘rganilgan bo‘lib, ularning ilmiy qarashlari raqamli ta’limning nazariy asoslarini, amaliy vositalarini va ta’lim jarayonidagi istiqbolli yo‘nalishlarini belgilashda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda<sup>1</sup>.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida ta’lim jarayoniga sun’iy intellekt vositalarini ta‘limga joriy qilish va uning istiqbollari tadqiqotlarni L.V.Konstantinova, V.V.Vorozhihin, A.M.Petrov, E.S.Titova, D.A. Shtyxno, S.V. Kobelev, P.L.Ototskiy, E.A.Koshkina, N.V Bordovskaya, D.S.Gnedyx, Xromova M.A., R.V.Demyanchuk, M.P.Isxakova, A.E. Korchak,, Ye.D.Patarakin, I.E.Moskalev, Ye.N.Ivaxnenko,.D.P.Ananin,V.V.Vixman,A.D.Dzheyranian, M.A.Plaksin va J.Talgatulylar tomonidan amalga oshirilgan<sup>2</sup>.

Xorijiy davlatlarda generative suniy intellect vositalari bilan bo‘lajak muhandislarni o‘qirish jarayoniga oid tadqiqotlar Aditya Johri, Andrew S. Katz, Junaid Qadir, Ashish Hingle, Basheer Al-Tayar, Mahmoud A. Noman,Mokhtar A. Amrani, L. Fan, Kunyang Deng, va Fangxue Liu, Goswami Debjani va

---

<sup>1</sup> Эргашева Г.С. Биология таълимида интерактив дастурий воситалардан самарали фойдаланиши такомиллаштириш // Педагогика фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2018. – 56 б.; Лутфиллаев М.Х. Олий таълим ўкув жараёнини такомиллаштиришда ахборот технологияларини интеграциялаш назарияси ва амалиёти (Информатика ва табиий фанлар мисолида) // Педагогика фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2007. – 246 б; Aripov M. va boshq. Informatika axborot texnologiyalari. – Т.: Universitet,2007. – 264 с.; Kalekeyeva T. T. Ta’limni axborotlashshtirish sharoitida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlash mazmunini takomillashtirish. Diss... dok (PhD ). – Т.: 2018. – 135 б.; M.R.Fayziyeva.Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim platformasini yaratish va amaliyotga joriy etish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferat.Chirchiq-2023.72 bet.; Z.X.Botiroya. Bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini sun’iy intellekt va raqamli ta’lim texnologiyalar asosida rivojlantirish metodikasi (ingliz tili misolida) // Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferat.Namangan -2025.89 bet.; B.A.Umarov.Raqamli texnologiyalar vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarini kasbiy kompetentligini takomillashtirish(malakaviy amaliyot misolida) // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferat.Toshkent-2025.; J.Qarshiyyev. Sun’iy intellekt tizimlari yordamida malaka oshirish ta’limi tinglovchilarining kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferat.Termiz-2023.56 bet.; Sh.Musurmonova. Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak muhandis-dasturchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferat.Toshkent-2025.52 bet.;A.S.Axadova. Ta’limni raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak muhandislarning kompyuterli modelllashtirishga oid kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferat.Jizzax -2025.; E. D. Imomnazarov.Bo‘lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini raqamli texnologiya vositasida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferat.Toshkent-2024.

<sup>2</sup> Кобелев Сергей Вениаминович, Отоцкий Петр Леонидович Генеративный искусственный интеллект: интеграция в вузах России и мира // Профессиональное образование и рынок труда. 2025. №3 (62).; Кошкина Е. А. и др. Генеративный искусственный интеллект в высшем образовании: обзор теоретических подходов и практик применения //Высшее образование в России. – 2025. – Т. 34. – №. 6. – С. 36-57.; Корчак А.Э., Патаракин Е.Д., Костли Д. Изучение использования генеративного искусственного интеллекта студентами университетов: систематический обзор литературы // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Информатизация образования. - 2025. - Т. 22. - №1. - С. 37-57.; Москалёв И. Е. Применение систем генеративного искусственного интеллекта в высшем образовании //Науковедческие исследования. – 2024. – №. 4. – С. 107-120.; Ивахненко Е. Н., Никольский В. С. ChatGPT в высшем образовании и науке: угроза или ценный ресурс? //Высшее образование в России. – 2023. – Т. 32. – №. 4. – С. 9-22.; Ананин Д. П., Комаров Р. В., Реморенко И. М. «Когда честно–хорошо, для имитации–плохо»: стратегии использования генеративного искусственного интеллекта в российском вузе //Высшее образование в России. – 2025. – Т. 34. – №. 2. – С. 31-50; Вихман Виктория Викторовна, Миндигулова Арина Александровна, Ромм Марк Валерьевич Искусственный интеллект в образовании: обзор возможностей и ограничений // Идеи и идеалы. 2024. №4-1.; Джайранян А. Д., Плаксин М. А. Применение генеративного искусственного интеллекта для оценки рисков и безопасности федеральных проектов. – 2024.; Талгатулы Ж. Искусственный интеллект в казахстане: переосмысление педагогических подходов в высшем образовании // Sciences of Europe. 2023. №128.

Jean-Baptiste R. G. Souppez, A. Garg, K. N. Soodhani, R. Rajendranlar tomonidan o‘rganilgan<sup>3</sup>.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar robototexnika, avtomobilsozlik, smart engineering, muhandislarni tayyorlashda sun’iy intellekt texnologiyalaridan, texnologik dizayndan foydalanish mexanizmlari, talabalarning adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasiga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari bo‘lib, biroq generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish ilmiy-nazariy jihatdan to‘ligicha tadqiq etilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya mavzusi bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universitetining 2024-2026-yillarga mo‘ljallangan “Innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish zaruriyati” (2024-2026 yy.) mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish va uning samaradorligini amaliy jihatdan asoslashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

xorijiy tajribalarga yondashib, generativ sun’iy intellekt asosidagi muhandislik ta’limini tashkil qilish zaruriyati va bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari hamda tarkibiy tuzilishini takomillashtirish yo‘llarini aniqlash;

bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatida generativ sun’iy intellekt yordamidan foydalanishga tayyorliligiga ta’sir etuvchi omillar va bosqichlari asosida bo‘lajak muhandislarning adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning tarkibiy komponentlarini ishlab chiqish;

generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik va pedagogik shart-sharoitlari, mexanizmlari asosida bo‘lajak muhandislarning adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning mantiqiy-funksional modeli ishlab chiqish;

generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali o‘qitish texnologiyasini interaktiv ta’lim metodlaridan foydalanib takomillashtirish;

texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarida zamonaviy o‘qitish vositalaridan foydalanish asosida kasbiy faoliyatiga tayyorlik darajalarini aniqlash mezonlari, ko‘rsatkichlari va tayyorgarlik darajalarini tajriba-sinov natijalari orqali matematik-statistik ishlov berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning ob’yekti** sifatida texnika oliy ta’lim muassasalari generativ

<sup>3</sup> Johri A. et al. Generative artificial intelligence and engineering education //Journal of Engineering Education. – 2023. – T. 112. – №. 3.; Al-Tayar B., Noman M. A., Amrani M. A. Generative AI and Engineering Education: Measuring Academic Performance Amidst Socioeconomic Challenges in Yemen //Journal of Science and Technology. – 2025. – T. 30. – №. 5.; Fan L., Deng K., Liu F. Educational impacts of generative artificial intelligence on learning and performance of engineering students in China //Scientific reports. – 2025. – T. 15. – №. 1. – C. 26521.; Goswami D., Souppez J. B. R. G. Generative AI in Engineering Education //2024 UK and Ireland Engineering Education Research Network Annual Symposium. – 2024.; Garg A., Soodhani K. N., Rajendran R. Enhancing data analysis and programming skills through structured prompt training: The impact of generative AI in engineering education //Computers and Education: Artificial Intelligence. – 2025. – T. 8. – C. 100380.

sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni tanlangan bo‘lib, tajriba-sinov ishlariga Jizzax politexnika instituti, Farg‘ona davlat texnika universiteti, Buxoro davlat texnika universiteti, va Andijon davlat texnika institutlarining 60712500 - Transport vositalari muhandisligi (avtomobil tarnasporti) ta’lim yo‘nalishida 2022-2025 yillarda o‘tkazildi, tajriba-sinov ishida jami 725 nafar respondent talabalari jalgilindi.

**Tadqiqotning predmetini** texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarida generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish mazmuni, vosita, shakl va metodlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Maqsadga erishish va qo‘yilgan vazifalarni hal qilish uchun quyidagi nazariy va empirik tadqiqot metodlaridan foydalaniladi: pedagogik-psixologik va ilmiy adabiyotlarni o‘rganish hamda tahlil qilish, malaka talablari va o‘quv dasturlari, o‘quv tarbiya faoliyatini kuzatish, taqqoslash, tashhis usullari, anketa, test-so‘rovnomalar o‘tkazish, loyihalash, modellashtirish, ekspert baholash, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish, psixodiagnostika, natijalarni matematik-statistik ishlov berish.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarida generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularni xorijiy tajribalar bilan qiyosiy tahlil qilish jarayonida, global ta’lim integratsiyasi sharoitida muhandislik ta’limining metodik ta’minotini transformatsiyalashga xizmat qiladigan innovatsion didaktik yechimlar kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim (competency-based learning) tamoyillari asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatida generativ sun’iy intellekt yordamidan foydalanishga tayyorliligiga ta’sir etuvchi omillar va bosqichlar o‘rganiishi asosida, “tannarx muhandisligi” (kost injiniring), “qiyoslash muhandisligi” (benchmarking), “qayta muhandislik” (reversiv injiniring) kabi faoliyat sohalarida chuqur ilmiy izlanishlar olib borilish, adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning motivatsion, kognitiv, refleksiv va faoliyatli komponentlarini qamrab oluvchi zamonaviy tarkibiy komponentlar ishlab chiqilgan;

generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarning adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishiga taalluqli didaktik shart-sharoitlarni belgilash hamda kreativ loyihalsh qobiliyatlarini (creative project abilities) rivojlantirishga qaratilgan mexanizm asosida, shakllari, yondashuvlari, tamoyillari va tarkibiy komponentlarini o‘zida qamrab olgan kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mantiqiy-funksional model mazmunan modernizatsiyalashtirilgan;

generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida interaktiv Media “ACTP” texnologiyasi va “Project-Based Learning”, “Adaptive Learning Platformlari”, “Brainstorming” va “Generativ Dizayn” metodi kabi ta’lim metodlari, masofaviy va raqamli o‘qitish texnologiyalarini integratsiyalash orqali ta’lim samaradorligini qaratilgan

ilg‘or pedagogik texnologiyalar tizimi asosida o‘quv jarayonini tashkil etish metodikasi hamda didaktik ta’minoti takomillashtirilgan;

texnika oliv ta’lim muassasalari talabalarida zamonaviy o‘qitish vositalaridan foydalanish asosida mezon va ko‘rsatkichlar ishlab chiqildi hamda tajriba-sinov jarayonlarida olingan ma’lumotlarga kompetensiyaviy rivojlanish ko‘rsatkich (Competency Development Indicator)lari asosida matematik-statistik ishlov berish orqali adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlanganligini baholashning boshlang‘ich, rivojlanuvchi va innovatsion mezonlari hamda past, o‘rta, yuqori darajalari aniqlashga qaratilgan didaktik resurslar ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quydagilardan iborat:

generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning o‘quv-uslubiy ta’minotini yaratilgan;

60712500 - Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “Loyixalash jarayonlarini avtomatlashtirish asoslari” (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 09-iyuldagagi “258”-sonli buyrug‘i asosida, № 535405 raqamli nashr ruxsatnomasi) nomli darslik hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 136-sonli buyrug‘iga asosan tasdiqlangan №951559 sonli guvohnoma bilan “Kompyuter loyihalash” nomli darsliklar bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish vosita sifatida yaratilgan;

generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni zamonaviy kasbiy faoliyatiga tayyorlashga xizmat qiladigan samarali o‘qitish texnologiyasini interaktiv ta’lim platformalari yaratish, yangi tadqiqot ishlari uchun yangi g‘oyalar olish maqsadida maxsus “Generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish” nomli elektron ta’lim platformasi yaratildi (O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2025 yil 15-noyabrda berilgan № DGU 56426 raqamli guvohnoma) hamda multimedia resurslaridan loyihalash faoliyatiga doir foydalanish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish doir respublika va xorijiy manbalar keng qamrovda qiyosiy-tahliliy o‘rganilgani, tadqiqot mazmuni va ustuvor yo‘nalishlarining nazariy jihatdan puxta asoslangani, to‘plangan ma’lumotlarning ilmiy ishonchliligi ta’minlangani, shuningdek tadqiqotning ob’ekti, predmeti belgilanganligi, vazifalari aniq qo‘yilganligi, ilgari surilgan ilmiy g‘oyalar pedagogik tadqiqot talablari asosida tashkil etilgan tajriba-sinov jarayonida sinovdan o‘tkazilganligi hamda ularning samaradorlik darjasini eksperimental tarzda tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan texnika generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik jarayonlari, o‘qitishning didaktik vositalari, o‘quv jarayonining metodik tizimi modeli ishlab chiqilgani, bo‘lajak muhandislarning kasbiy imkoniyatini oshirish omili sifatida, generativ sun’iy intellekt yordamida

bo'lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodik jihatlari va texnika oliv ta'lim muassasalarida bo'lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik va pedagogik shart-sharoitlari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati hozirgi kunda malakali muhandislarga bo'lgan ehtiyojni hisobga olgan holda oliv ta'lim muassalarida tayyorlanadigan bo'lajak muhandislarni generativ sun'iy intellekt yordamida adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning mexanizmi uchta asosiy turlarga bo'lib olgan holda qo'lllashning didaktik imkoniyatlarining kengaytirilgani hamda texnika ta'lim muassasalarining "Loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirish asoslari" hamda "Kompyuter loyihalash" fanlari mazmunini boyitish, bo'lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Texnika oliv ta'lim muassasalarida generativ sun'iy intellekt yordamida bo'lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha tadqiqot natijalari asosida:

texnika oliv ta'lim muassasalari talabalarida generativ sun'iy intellekt yordamida bo'lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularni xorijiy tajribalar bilan qiyosiy tahlil qilish jarayonida, global ta'lim integratsiyasi sharoitida muhandislik ta'limining metodik ta'minotini transformatsiyalashga xizmat qiladigan innovatsion didaktik yechimlar kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim (competency-based learning) tamoyillari asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan "Loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirish asoslari" nomli darslik (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 09-iyuldag'i "258"-sonli buyrug'i asosida, № 535405 raqamli nashr ruxsatnomasi) yaratilgan. Natijada, generativ sun'iy intellekt yordamida bo'lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning metodik ta'minotini samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatida generativ sun'iy intellekt yordamidan foydalanishga tayyorliligiga ta'sir etuvchi omillar va bosqichlar o'rganishi asosida, "tannarx muhandisligi" (kost injiniring), "qiyoslash muhandisligi" (benchmarking), "qayta muhandislik" (reversiv injiniring) kabi faoliyat sohalarida chuqur ilmiy izlanishlar olib borilish, adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning motivatsion, kognitiv, refleksiv va faoliyatli komponentlarini qamrab oluvchi zamonaviy tarkibiy komponentlar ishlab chiqishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan 60712500 - Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) ta'lim yo'nalishi uchun "Kompyuterli loyihalash" nomli darslik (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 14-apreldagi "136"-sonli buyrug'i asosida, № 951559 raqamli nashr ruxsatnomasi) yaratilgan. Natijada, generativ sun'iy intellekt yordamida bo'lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning o'quv-uslubiy ta'minotini yaratilgan.

generativ sun'iy intellekt yordamida bo'lajak muhandislarning adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishiga taalluqli didaktik shart-sharoitlarni

belgilash hamda kreativ loyihalsh qobiliyatlarini (creative project abilities) rivojlantirishga qaratilgan mexanizm asosida, shakllari, yondashuvlari, tamoyillari va tarkibiy komponentlarini o‘zida qamrab olgan kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mantiqiy-funksional model mazmunan modernizatsiyalashga doir amaliy taklif va tavsiyalardan 60712500 - Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) ta’lim yo‘nalishi uchun “Kompyuterli loyihalash” nomli darslik (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 14-apreldagi “136”-sonli buyrug‘i asosida, № 951559 raqamli nashr ruxsatnomasi) yaratilgan. Natijada, generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning o‘quv-uslubiy ta’mintonini yaratilgan;

generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida interaktiv Media “ACTP” texnologiyasi va “Project-Based Learning”, “Adaptive Learning Platformlari”, “Brainstorming” va “Generativ Dizayn” metodi kabi ta’lim metodlari, masofaviy va raqamli o‘qitish texnologiyalarini integratsiyalash orqali ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan ilg‘or pedagogik texnologiyalar tizimi asosida o‘quv jarayonini tashkil etish metodikasi hamda didaktik ta’moti takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalaridan 60712500 - Transport vositalari muhandisligi (avtomobil tarnasporti) ta’lim yo‘nalishi malaka talablariga singdirilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligining oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi 2025 yil 15-noyabrdagi 02/01-01-461-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning o‘quv-uslubiy ta’mintonini yaratilgan.

texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarida zamonaviy o‘qitish vositalaridan foydalanish asosida mezon va ko‘rsatkichlar ishlab chiqildi hamda tajriba-sinov jarayonlarida olingan ma’lumotlarga kompetensiyaviy rivojlanish ko‘rsatkich (Competency Development Indicator)lari asosida matematik-statistik ishlov berish orqali adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlanganligini baholashning boshlang‘ich, rivojlanuvchi va innovatsion mezonlari hamda past, o‘rta, yuqori darajalari aniqlashga qaratilgan didaktik resurslar ishlab chiqilganligiga doir amaliy taklif va tavsiyalaridan “Kompyuterli loyihalash” nomli darslik (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 14-apreldagi “136”-sonli buyrug‘i asosida, № 951559 raqamli nashr ruxsatnomasi) yaratilgan. Natijada, generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning o‘quv-uslubiy ta’mintonini yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 dan ziyod ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shundan 9 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda, 1 ta monografiya chop qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi tomonidan 1 ta dasturiy ta’mot uchun guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bob, 255 sahifa matn, jadval, xulosa va tavsiyalar hamda ilovalardan iborat.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, ob’yekti va predmeti aniqlashtirilgan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma’lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning “**Muhandislik ta’limida generativ sun’iy intellekt va adaptiv loyihalash kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlanuvchi birinchi bobida generativ sun’y intellekt texnologiyalarining ta’limdagi o‘rni va imkoniyatlari, xorij tajribasi asosida generativ sun’iy intellekt asosidagi muhandislik ta’limini tashkil qilish zaruriyati va adaptive loyihalash kompetensiyasining tarkibiy tuzilishi va xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan.

Sun’iy intellekt yoki Sun’iy idrok (*SI*; inglizcha: *artificial intelligence, AI*) – inson intellektiga taqlid qilishga qodir bo‘lgan mashinalar yaratishga qaratilgan fan va texnologiya sohasi.


Generativ sun’iy intellekt (generativ AI, GenAI, yoki GAI) generativ modellar yordamida matn, tasvir, video yoki boshqa ma’lumotlarni yaratishga qodir bo‘lgan sun’iy intellekt bo‘lib, ko‘pincha takliflarga javob beradi. Generativ AI modellari o‘zlariga oldindan o‘qitilgan ma’lumotlarining belgilari va tuzilishini o‘rganadilar va keyin o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘lgan yangi ma’lumotlarni yaratadilar.

“Generativ” atamasi lotincha ***generare*** – “yaratmoq, vujudga keltirmoq” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, texnika va muhandislik fanlarida u **“yangi narsani hosil qiluvchi, yaratuvchi, shakllantiruvchi”** ma’nosida qo‘llanadi. Texnik jarayonlarda “generativ” tushunchasi mavjud ma’lumotlar, shart-sharoitlar yoki algoritmlar asosida yangidan yangi mahsulot, yechim yoki model yaratish jarayonini anglatadi.

Zamonaviy global ta’lim tizimida generativ sun’iy intellekt texnologiyalarining muhandislik ta’limiga integratsiyalashuvi nafaqat innovatsion tajriba, balki ob’ektiv zaruratga aylanib bormoqda. Bu jarayon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida strategik yo‘nalish sifatida qabul qilinmoqda. So‘nggi yillarda Amerika Qo‘shma Shtatlarining Massachusetts Texnologiya Instituti, Stenford universiteti va Karnegi Mellon universiteti kabi nufuzli oliy ta’lim muassasalari, Germaniyaning Myunxen texnika universiteti, Buyuk Britaniyaning Kembrij va Oksford universitetlari, shuningdek, Xitoyning Tsinxua va Pekin universitetlari generativ sun’iy intellekt asosidagi ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarga kirishgan. Bu umumjahon harakat tasodifiy emas, balki global iqtisodiyot va texnologik rivojlanishning ob’ektiv qonuniyatlariga javob berish zaruriyatidan kelib chiqadi. Shu maqsadda turli

sohalardagi bilimlardan foydalangan holda, turli xil yechimlarning natijalari va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlarini bashorat qilish qobiliyati, sabab-oqibat aloqalarini o‘rnatish qobiliyatidan foydalanib, qattiq o‘ylash, muammolarni topish va hal qilishdir.

“Loyihalashtirish faoliyati”, “Loyihalashtirish”, “Loyihalashtirish usuli” tushunchalarini tahlil qilish jarayonida olingen ma’lumotlarni hisobga olgan holda, biz “Loyihalashtirish kompetensiyasi” tushunchasining semantik talqinini ko‘rib chiqamiz. Tarixiy jihatdan, loyiha konsepsiysi anchadan beri qo‘llanila boshlangan, bu uning yordamida texnik sohalardagi hujjatlar to‘plamini anglatadi. Biroq, jahon pedagogikasida loyiha faoliyati o‘tgan asrning boshlarida pedagogik texnologiya sifatida o‘z shaklini oldi va Jon Devi va uning izdoshi Uilyam Xird Kilpatrick g‘oyalari bilan bog‘liq. “Loyiha” tushunchasi ma’nosining tarixiy xronologiyasi quyida 1-jadvalda keltirilgan. Yuqorida adaptiv loyihalash kompetensiyasiga berilgan ta’riflardan kelib chiqib biz talabalarni adaptiv loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan quyidagi ishchi ta’rif berish ishlab chiqdik (1-rasm):



### 1-rasm. Adaptive loyihalash kompetensiyasi ishchi ta’rifi.

Adaptiv loyihalash kompetensiyasining o‘ziga xos xususiyatlari uni an’anaviy kompetensiya turlaridan farqlantiradi va uning zamonaviy ta’limdagi ahamiyatini belgilaydi. Dinamik tabiat, kontekstga bog‘liqlik, holistik yondashuv, refleksivlik, noaniqlik bilan ishlash qobiliyati va etik onglilik kabi xususiyatlar bu kompetensianing keng qo‘llanilish doirasini ta’minlaydi va turli professional vaziyatlarda samarali bo‘lishini kafolatlaydi. Kompetensianing o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi tabiatni va transferlik qobiliyati uning uzoq muddatli ahamiyatini ko‘rsatadi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobiga “**Bo‘lajak muhandislarni adaptive loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik-kontseptual asoslari**” deb nomlanib, texnika oliy ta’lim muassasalarida muhandislik ta’limida adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar va bosqichlari, bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari va texnika oliy ta’lim muassasalarida muhandislik ta’limida adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik va pedagogik shart-sharoitlari yoritib berilgan.

Generativ sun‘iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar va bosqichlarni belgilab

olishda bu borada tadqiqot olib borgan bir qator mashxur olimlarning ishlarida keltirilgan omillar va bosqichlarni tahlil qilish, pedagogik mohiyati, funksional vazifalari va bo‘lajak muhandislarning kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanishiga ta’sirini o‘rganish zarur. Bu esa o‘z navbatida ta’lim jarayonida bo‘lajak muhandislarning kasbiy malakasini oshirish uchun nazariy hamda amaliy asos yaratish bilan birga bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning omillari va bosqichlarini tizimli ravishda yoritish orqali ilmiy asoslangan pedagogik ta’sirchanlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Texnika oliv ta’lim muassasalarida ushbu kompetensiyani rivojlantirishda bir nechta omillar mavjud bo‘lib, ular pedagogik, texnologik, tashkiliy va me’yoriy-huquqiy jihatlarda namoyon bo‘ladi.

**1. Raqamli muhit va texnologik integratsiya omillar** - Bu omil bo‘lajak muhandislar faoliyatini shakllantirishda eng asosiy infratuzilma rolini o‘ynaydi. Generativ sun’iy intellekt tizimlari (masalan, CAD+AI, ChatGPT Engineering, AutoDesk Copilot, SolidWorks AI Assistant) yordamida loyihalash jarayonlari raqamli muhitda amalga oshiriladi.

**2. Pedagogik-didaktik omillar:** - Bu omil o‘quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlarini ifodalaydi. Generativ sun’iy intellekt yordamida adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishda quyidagi jihatlar muhim:

**3. Kognitiv-ijodiy va motivatsion omil** - Generativ sun’iy intellekt muhandislik ta’limida ijodiy tafakkurni rag‘batlantiradi. U quyidagi yo‘nalishlarda ta’sir ko‘rsatadi:

Generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishda Raqamli muhit va texnologik integratsiya omillar bo‘lajak muhandislarning generativ sun’iy intellekt yordamidan samarali foydalanishini ta’minlaydi va ta’lim sifatini oshiradi.

Natijada, bu uch guruh omillari birgalikda generativ sun’iy intellektdan foydalanish orqali talabalarning adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishni yanada samarali va tizimli tarzda amalga oshirish imkonini beradi.

Yuqoridagi bu omillardan foydalangan holda biz ham tadqiqot ishimiz uchun zarur bo‘lgan quyidagi shaxsiy, pedagogik va tashkiliy-texnologik omillarni ishlab chiqdik (2-rasm).

Generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarini adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

### **1. Diagnostik-analitik bosqich.**

*Diagnostik-analitik bosqich* – talabalarning mavjud bilim, ko‘nikma va texnik tafakkur darajasini aniqlash, sun’iy intellekt tizimi yordamida individual o‘quv traektoriyasini shakllantirish.

Bu bosqichda bo‘lajak muhandislarning mavjud bilim darjasini, texnik tafakkuri va raqamli kompetensiyasi aniqlanadi. Generativ sun’iy intellekt (AI) vositalari yordamida talabalarning individual o‘quv traektoriyasi tahlil qilinadi — ya’ni, sun’iy intellekt tizimi ularning oldingi tajribasi, yechgan masalalari va xatolarini o‘rganadi. Shu asosda o‘quv jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan modelga moslashtiriladi. Bu bosqichda talabaning muhandislik fikrashi, muammoli

vaziyatlarga yondashuvi va loyihalashga tayyorgarligi haqida dastlabki ma'lumotlar shakllanadi.



## 2-rasm. Generativ sun'iy intellekt yordamida bo'lajak muhandislarini adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir qiladigan omillar.

### 2. Model-konstrukturlik bosqichi.

*Model-konstrukturlik bosqichi* – generativ sun'iy intellekt yordamida texnik yechimlar, modellar va dizayn variantlarini ishlab chiqish, tahlil qilish va optimallashtirish.

Ushbu bosqichda talaba generativ sun'iy intellekt yordamida turli texnik yechimlar modellarini yaratishni o'rGANADI. Masalan, sun'iy intellekt tizimi berilgan texnik shartlar asosida avtomatik ravishda turli variantlar generatsiya qiladi (3D modellar, mexanik tizimlar, chizma va sxemalar). Talaba esa bu variantlarni tahlil qilib, optimalini tanlaydi yoki ularni kombinatsiyalab yangi konstruktiv yechim yaratadi. Bu bosqichda muhandislik tafakkuri bilan bir qatorda tizimli, kombinatorik va reflektiv fikrlash rivojlanadi.

### 3. Eksperimental-adaptiv bosqich.

*Eksperimental-adaptiv bosqich* – yaratilgan loyihalarni raqamli muhitda sinovdan o'tkazish, sun'iy intellekt orqali simulyatsiya qilish, natijalarga qarab moslashtirish va takomillashtirish.

Bu bosqichda talaba yaratilgan loyihani raqamli muhitda sinovdan o'tkazadi. Generativ sun'iy intellekt tizimi modellashtirilgan obyektning ishini simulyatsiya qiladi, muammoli joylarini aniqlaydi va muqobil yechimlar taklif etadi. Shu orqali talaba real ishlab chiqarishdagi noaniqlik, risk va cheklavlarga moslashishni


o‘rganadi. Adaptivlik bu bosqichda markaziy o‘rin tutadi — talaba o‘z loyihasini natijaviylik, barqarorlik va samaradorlik mezonlariga ko‘ra qayta sozlaydi.

#### **4. Refleksiv-integrativ bosqich.**

*Refleksiv-integrativ bosqich* – talabalarning loyiha jarayonidagi tajribasini tahlil qilish, o‘z faoliyatini baholash va boshqa fanlar bilan integratsiyalash orqali kompetensiyani mustahkamlash.

Jarayonning yakuniy bosqichida talaba o‘z tajribasini tahlil qiladi, generativ sun’iy intellekt bilan hamkorlikda o‘zining loyiha faoliyatidagi qarorlarini baholaydi. Bu bosqich refleksiya, ya’ni o‘z fikrlash jarayonini anglash, tahlil qilish va uni yaxshilashga qaratilgan. Shu bilan birga, talaba o‘z faoliyatini boshqa fanlar (fizika, informatika, dizayn, texnologiya) bilan integratsiyalash orqali kengaytiradi. Natijada u adaptiv, ijodiy va raqamli muhandis sifatida shakllanadi.

Generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlarini belgilab olishda hisobga olinishi zarur bo‘lgan asosiy shartlarni e’tiborga olgan holda generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlari ishlab chiqildi (3-rasm):



**3-rasm. Generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlari**

Muhandislik sohasidagi kasbiy faoliyat - bu murakkab texnologik tizimlar bilan ishlash, muammolarni hal etish, yangilik yaratish, jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan texnik yechimlarni ishlab chiqish faoliyatidir. Shu sababli bo‘lajak muhandislar o‘z kasbiy salohiyatini rivojlantirish jarayonida nafaqat texnik bilimlarga, balki loyihalash kompetensiyasini tashkil etuvchi tarkibiy

komponentlarga ham ega bo‘lishi zarur. Mazkur tarkibiy komponentlarni aniqlash va ularni shakllantirishga oid didaktik asoslarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy masaladir.

Tahlillar natijasida biz ham bo‘lajak muhandislarning adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari quyidagi oltita komponentlarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin deb hisoblaymiz:

**1. Kasbiy bilim komponent** – muhandislik loyihasini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan fundamental fanlar, texnologik jarayonlar va loyihaviy hujjatlashtirish bo‘yicha nazariy bilimlar majmui.

**2. Amaliy-ko‘nikma komponenti** – chizmalar tuzish, dasturlash, kompyuter loyihalash tizimlaridan (CAD/CAM/CAE) foydalanish, texnologik jarayonlarni modellashtirish ko‘nikmalari.

**3. Ijodiy-innovatsion komponent** – yangicha g‘oyalar ishlab chiqish, noan’anaviy yechimlar topish va ularni loyihalarda qo‘llash qobiliyati.

**4. Kommunikativ komponent** – jamoada ishlash, loyiha ishtirokchilari bilan samarali muloqot qilish, texnik g‘oyalarni aniq ifodalash mahorati.

**5. Tizimli-mantiqiy komponent** – muhandislik muammolarini kompleks tahlil qilish, ularning sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlash va optimal yechim variantlarini tanlash qobiliyati.

**6. Moslashuvchan-adaptiv komponent** – o‘zgaruvchan sharoitlarda ishlash, yangi texnologiyalarni tez o‘zlashtirish va loyihani vaziyatga mos holda qayta loyihalash qobiliyati.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgani tufayli ta’lim tizimi ham tubdan yangilanmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak muhandislarni tayyorlash jarayonida generativ sun’iy intellekt yordamida undan samarali foydalanish dolzarb masalaga aylangan. Bu muhit orqali nafaqat zamonaviy bilimlarni uzatish, balki talabalarda mustaqil fikrlash, kasbiy mas’uliyat va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini aniqlash va amaliyotga tatbiq etish ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi.

Generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik shartlari quyidagilardan iborat. Avvalo didaktik shart nima degan savolga javob berib olsak.

Didaktik shartlar — bu ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘lgan nazariy-pedagogik asoslар, metodik yondashuvlar va ta’lim strategiyalaridir. Bo‘lajak muhandislar uchun quyidagi didaktik shartlar muhim hisoblanadi:

1. Ta’lim mazmunining yangiligi va integratsiyasi sharti – o‘quv dasturlarida zamonaviy muhandislik fanlari, axborot texnologiyalari va loyihaviy faoliyat integratsiyasi ta’minlanishi.

2. Innovatsion metodlardan foydalanish sharti – loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyatlarni hal qilish, interaktiv mashg‘ulotlar orqali bilimlarni mustahkamlash.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish sharti – CAD/CAM dasturlari, simulyatsiya, 3D-modellashtirish vositalaridan foydalanish.

4. O‘qitish jarayonida fanlararo yondashuvni qo‘llash sharti – texnika fanlari bilan bir qatorda menejment, iqtisodiyot, ekologiya kabi fanlarning uyg‘unligini ta’minlash.

5. Nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish sharti – ishlab chiqarish amaliyotlari, laboratoriya mashg‘ulotlari va sanoat korxonalari bilan hamkorlikda loyihamalar ishlab chiqish.

Zamonaviy ta’lim jarayonida talabani passiv bilim oluvchidan faol ishtirokchiga aylantirishda refleksiya va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, bo‘lajak muhandislar uchun bu kompetensiyalar kasbiy rivojlanishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Yuqoridagi generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik shartlardan kelib chiqqan holatda biz quyida generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik sharoitlarga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Didaktik sharoitlar — bu o‘quv jarayonini tashkil qilishga doir muhandislik-texnik baza, pedagogik muhit, moddiy-texnik vositalar hamda ta’lim muassasasi infratuzilmasi kabi tashkiliy jihatlarni anglatadi. Bunda quyidagi **didaktik sharoitlarga** amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

**1. Qulay ta’lim muhitini yaratish sharoiti** – o‘quvchilarda ijodiy fikrlesh, erkin muloqot va tashabbuskorlikni rag‘batlantiruvchi muhitni shakllantirish.

**2. Motivatsiyani kuchaytirish sharoiti** – bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga qiziqtirish, ularning ijodiy tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash.

**3. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim sharoiti** – talabalarning individual qobiliyatlari va imkoniyatlarini inobatga olish, differensial yondashuv asosida o‘qitish.

**4. Hamkorlik va ijtimoiy sheriklik sharoiti** – talabalar va o‘qituvchilar, shuningdek, ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish.

**5. Tashkiliy-kognitiv sharoit** - ta’lim jarayonida tashkiliy-kognitiv sharoitlar samarali o‘quv faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun asosiy omil hisoblanadi. Bu sharoit o‘quv dasturlarining aniq rejalashtirilishi, mashg‘ulotlarning tizimli tashkil etilishi va talabalarning bilish faoliyatini qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi.

**6. Elektron ta’lim platformalarining joriy etilish sharoiti.** Zamonaviy ta’lim jarayonida elektron ta’lim platformalarining joriy etilishi bo‘lajak muhandislarning mustaqil ta’lim olish, bilimlarni erkin izlash va ularni amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Moodle, Google Classroom, Edmodo kabi platformalardan foydalanish ta’lim jarayonini masofaviy, interaktiv va shaxsga yo‘naltirilgan shaklda tashkil etishga xizmat qiladi.

**7. Dasturiy faoliyat sharoiti** - talabalarning adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv jarayonida talabalarning dasturlash faoliyatini ta’minlashga yo‘naltirilgan didaktik va pedagogik vositalar, zarur shart-sharoitlarni hamda o‘quv didaktik muhitni vujudga keltirish, zamonaviy

axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotimiz jarayonida talabalarning adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish uchun zaruriy didaktik vosita bo‘lgan, zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterda samarali ishlash imkoniyatiga ega bo‘lgan, talabalarning faol ishtiroki ta’minlanadigan, mustaqil tarzda axborotni qidirish, ular ustida qayta ishslashning amaliy muammolarni bartaraf etishga talabalarning individual tarzda faoliyatini amalga oshirishning asosiy vositasi “Generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish” nomli elektron ta’lim platformasi ishlab chiqildi va tadqiqot jarayonida samarali foydalanildi, mazkur platformaning quyidagi didaktik imkoniyatlari mavjud. Ushbu platformaga O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2025 yil 06-noyabrdan berilgan № DGU 56426 raqamlı guvohnoma olingan.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobiga “**Generativ sun’iy intellekt asosida bo‘lajak muhandislarni adaptive loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish**” deb nomlanib, generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning mexanizmi, generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish mantiqiy-funksional modelini ishlab chiqish va bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish yoritib berilgan.

Generativ sun’iy intellekt yordamida adaptiv loyihalash kompetensiyasini shakllantirish jarayoni nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirishni, balki ularni real loyihalarda sinovdan o‘tkazish, o‘zgaruvchan muhit sharoitiga moslashtirish, samaradorlikni tahlil qilish va takomillashtirish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ushbu yondashuv talabalarda analistik tafakkur, kreativ yondashuv va texnik muammolarga tizimli qarash qobiliyatini rivojlantiradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbliji shundan iboratki, generativ sun’iy intellektdan foydalanish orqali bo‘lajak muhandislarning adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat ularning kasbiy tayyorgarligini yuksaltiradi, balki xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishiga ham xizmat qiladi. Shunuqtayi nazardan, ushbu yo‘nalishda samarali mexanizm ishlab chiqish va uni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish bugungi kunning zaruriy talabiga aylanmoqda.

Dastlab mexanizm so‘zining lug‘aviy ma’nosiga u o‘zi nima qanaqa ta’lim mexanizmlari bor? Qanday pedagogik mexanizmlar bor shular xaqida atroficha ma’lumot bersak.

“Mexanizm” so‘zi qadimiylar yunoncha makhane – “qurol, asbob, harakatlantiruvchi vosita” so‘zidan kelib chiqqan. Lug‘aviy jihatdan u ma’lum bir jarayonning amalga oshishi uchun zarur bo‘lgan tartib, vosita, usullar va ularning o‘zaro bog‘liq harakatini anglatadi. Ya’ni, mexanizm deganda muayyan natijaga erishish uchun unga xizmat qiluvchi elementlar, qoidalar va jarayonlar yig‘indisi tushuniladi.

Biz o‘z tadqiqot ishimizda generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning mexanizmi uchta asosiy turlarga bo‘lib olgan holda o‘rganib chiqdik (4-rasm).



#### 4-rasm. bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning mexanizmining turlari

**Ta’limiy mexanizm** — bu bo‘lajak muhandislarning adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida o‘quv mazmuni, metodlari, texnologiyalari, didaktik shartlari va baholash tizimining o‘zaro bog‘langan, integratsiyalashgan, tizimli faoliyatini ta’minlaydigan pedagogik mexanizmdir.

**Rivojlantiruvchi mexanizm** — bu ushbu kompetensiyani bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiluvchi innovatsion ta’lim texnologiyalari, generativ sun’iy intellekt vositalari va amaliy muhitlar majmuidir.

**Adaptiv mexanizm** — bu o‘quvchi faoliyatini, loyihalash jarayonini, o‘quv muhiti va baholash tizimini o‘zgargan texnologik, pedagogik va muammoli sharoitlarga mos holda dinamik boshqarishni ta’minlaydigan integrativ tizim bo‘lib, u bo‘lajak muhandislarning yuqori moslashuvchan dizayn fikrlashini, tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini va innovatsion loyihalash salohiyatini shakllantiradi.

Pedagogikaning hozirgi zamon nazariyasi va amaliyoti hamda tadqiqotimizning mazmunidan kelib chiqqan generativ sun’iy intellekt yordamida talabalarning adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat quyidagi yondashuvlar asosida tashkil etildi (5-rasm):

Biz o‘z tadqiqotimizda model tushunchasiga bir qator pedagog olimlar tomonidan berilgan ma’lumotdan foydalanamiz: Model deganda tadqiqot obyektini aks ettirib yoki qayta ishlab uni o‘rganishni bizga obyekt haqida yangi ma’lumot beradigan fikriy tasavvur yoki ma’lumotni amalga oshiradigan tizim tushuniladi.

**Model** – bu muayyan ob’ekt, jarayon yoki hodisaning soddalashtirilgan, lekin eng muhim xususiyatlarini o‘z ichiga olgan nazariy-amaliy namunatizimdir. Ilmiy nuqtai nazardan, model real dunyoda mavjud bo‘lgan murakkab tuzilmalarini anqlash va tahlil qilish uchun xizmat qiladi. U tadqiqotchiga ob’ektning tashqi va ichki jihatlarini o‘rganish, ularni turli holatlarda qay tarzda namoyon bo‘lishini oldindan bashorat qilish imkoniyatini yaratadi.

**Ta’lim jarayonini modellashtirish** – bu o‘quv jarayonining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish, uning tuzilmasi, mazmuni va bosqichlarini model orqali aks ettirish jarayonidir. Bunda ta’limning maqsadlari, mazmuni, usullari, vositalari va natijalari tizimli tarzda ifodalanadi. Ta’lim jarayonini modellashtirish pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish,


o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyati o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.



### **5-rasm. Generativ sun’iy intellekt yordamida talabalarning adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlar.**

Bizning fikrimizcha, mantiqiy-funksional model - bu ta’lim jarayonining nazariy-metodik asoslarini, tarkibiy qismlarini va ular o‘rtasidagi funksional bog‘liqliklarni tizimli ifodalovchi konseptual qurilma bo‘lib, bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini bosqichma-bosqich, izchil va samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish tizimiga tayangan holda bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish mantiqiy-funksional modelning bloklari sifatida quyidagilarni ilgari surish mumkin **maqsadli, mazmunli, vositalar, jarayonli, metodik va natijaviy bloklar**. Mazkur modelda bloklar o‘zaro mantiqiy bog‘langan bo‘lib, har biri ta’lim jarayonida muayyan funksiyani bajaradi va umumiy natijaga yo‘naltiriladi (6-rasm).

Ushbu model bo‘lajak muhandislarni generativ sun’iy intellekt yordamida adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan masalalar va topshiriqlar asosida ishlab chiqilgan faoliyatiga tayyorlash metodikasining nazariy asosi bo‘lib hisoblanadi. Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda shuni ta’kidlash mumkinki, biz yaratgan bo‘lajak muhandisni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish mantiqiy-funksional modeli yaxlit ochiq, dinamik tashkil etilgan bo‘lib, bo‘lajak muhandislarini adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini maqsadga yo‘naltirish, qo‘yilgan maqsadning oxirgi natijaga mos bo‘lishini aniqlash imkonini beradi.



Shuningdek, mazkur modelning ochiq va moslashuvchan tuzilishi uni turli muhandislik yo‘nalishlariga, o‘quv dasturlariga hamda o‘quvchilarining individual tayyorgarlik darajasiga moslashtirish imkonini yaratadi. Bu esa ta’lim jarayonida differensial yondashuvni ta’minlab, har bir talabaning raqamli ijodkorlik salohiyatini, analitik fikrlashini va adaptiv loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Modelning metodik asoslari generativ sun’iy intellektdan foydalanishning didaktik shartlari, texnologik vositalari, baholash mezonlari va refleksiv tahlil mexanizmlari bilan boyitilgani holda, pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishga ko‘maklashadi. Mazkur yondashuv bo‘lajak muhandislarning kasbiy yetuklik darajasini oshirish, ularni murakkab muhandislik loyihalarini mustaqil hal qila oladigan kompetent mutaxassis sifatida tayyorlashga xizmat qiluvchi innovatsion metodik platforma sifatida o‘z o‘rniga ega.

Ayni paytda, modelning joriy etilishi o‘quv jarayonini raqamlashtirish, sun’iy intellekt yordamida o‘quv faoliyatini shaxsiylashtirish va muhandislik ta’limida yangi avlod ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Shu tariqa, ishlab chiqilgan mantiqiy-funksional model bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyalarini tizimli va izchil rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodologik asos sifatida namoyon bo‘ladi.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi Media “ACTP” texnologiyasi va “Project-Based Learning”, “Adaptive Learning Platformlari”, “Brainstorming” va “Generativ Dizayn” kabi interaktiv metodlar va “Loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirish asoslari” va “Kompyuter loyihalash” fanlari misolida amalga oshirildi.

#### **Media “ACTP” texnologiyasini ta’lim jarayonida qo‘llash.**


- **A (Analysis)** – Transport vositasi konstruksiyasini tahlil qilish.
- **C (Construction)** – SolidWorks dasturida konstruksiyaviy elementlarni yaratish.
- **T (Testing)** – Yaratilgan modelning to‘g‘riliqi va ishlash mexanizmini tekshirish.

- **P (Presentation)** – Yakuniy modelni taqdim qilish va himoya qilish.

**Misol.** “SolidWorks dasturida avtomobil g‘ildiragi (disk va shina) modelini yaratish” misolida ko‘rishimiz mumkin (7-rasm).

Zamonaviy muhandislik ta’limida loyihaviy yondashuv o‘zining samaradorligi bilan ajralib turadi. Chunki loyiha asosida o‘qitish talabalarga faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko‘nikmalarni ham egallash imkonini beradi. An’anaviy loyiha metodida talaba mustaqil ishlaydi, ammo ba’zan muammolarni hal qilishda vaqt va resurslar yetishmovchiligi seziladi. Shu nuqtai nazardan, Generativ sun’iy intellektni loyihaviy ta’lim bilan integratsiya qilish yangi bosqichni boshlab berdi. AI-PBL modeli orqali talaba loyiha ishlab chiqish jarayonida sun’iy intellektdan maslahat olishi, turli yechimlarni solishtirishi va eng maqbul variantni tanlashi mumkin. Bu nafaqat uning adaptiv loyihalash kompetensiyasi, balki kritik tafakkur va ijodkorlik qobiliyatini ham rivojlantiradi. Project-Based Learning metodini qo‘llash muhandislik ta’limida yangi sifat darajasini ta’minlaydi. Talaba endilikda loyihani

nafaqat ishlab chiqadi, balki sun'iy intellekt yordamida uni tahlil qiladi, alternativ variantlarni ko'radi va adaptiv tarzda yechim ishlab chiqadi. Bu jarayonda sun'iy intellekt "yordamchi" emas, balki **hamkor innovator** sifatida ishtirok etadi.



## 7-rasm. Media “ACTP” texnologiyasini dars mashg‘ulotida qo‘llanilishi Project-Based Learning (Loyihaga asoslangan ta’lim) metodi.

**Adaptive learning platformlari (Adaptiv ta’lim platformalari) metod.** Har bir talaba turli darajadagi bilim, qiziqish va o‘qish tezligiga ega. Shu sababli an'anaviy ta’lim metodlari barcha talabaga bir xil samaradorlik bermaydi. Sun'iy intellekt asosidagi adaptiv o‘quv platformalari bu muammoni hal etadi: har bir talaba o‘z imkoniyati va tezligiga qarab topshiriq oladi. Muhandislik ta’limida bu metod individuallashtirilgan loyihalash kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Brainstorming (fikrlar hujumi) metodi.** Muhandislik ta’limida ijodiy fikrlash, guruhli hamkorlik va tezkor g‘oya ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Brainstorming (fikrlar hujumi) metodini generativ sun'iy intellekt bilan uyg‘unlashtirish yangi bosqichni ochadi: endi talabalar nafaqat o‘z g‘oyalarini bildirishadi, balki sun'iy intellekt ularni kengaytirib, yangi variantlar qo’shadi va ilmiy asoslab beradi.

Brainstorming metodi orqali talabalar sun’iy intellekt bilan hamkorlikda yangi g‘oyalar ishlab chiqadi. Talabalar dastlab o‘z fikrini bildiradi, so‘ng sun’iy intellekt ushbu fikrni kengaytiradi, alternativ variantlar taklif qiladi, hatto yechimning iqtisodiy va ekologik jihatlarini ham tahlil qilib beradi. Bu jarayon talabalarning ijodiy fikrlash, kommunikativ ko‘nikma va liderlik kompetensiyasini rivojlantiradi.

**Generativ dizayn metodi.** Muhandislik ta’limida VR (Virtual Reality) va AR (Augmented Reality) texnologiyalari keng imkoniyat yaratmoqda. Ularni generativ sun’iy intellekt bilan birlashtirish esa talabalarni haqiqiy loyihani virtual muhitda ko‘rib chiqish, turli sharoitlarda sinash va optimallashtirish imkoniga ega qiladi. Bu metod nafaqat ko‘rgazmali, balki amaliy adaptiv dizayn kompetensiyasini shakllantirishda ham samarali hisoblanadi. Immersive VR/AR yordamida talaba o‘z loyihasini virtual muhitda ko‘radi, sun’iy intellekt esa turli muqobil dizayn variantlarini yaratib beradi. Masalan, talaba ko‘prik loyihasini ishlab chiqsa, VR orqali uni virtual ravishda ko‘rib chiqadi, sun’iy intellekt esa shu ko‘prikning turli konstruktiv variantlarini taklif qiladi. Talaba esa ularni tahlil qilib, eng maqbulini tanlaydi. Bu jarayon uning adaptiv fikrlash, qaror qabul qilish va dizaynni real sharoitga moslashtirish malakasini rivojlantiradi.

Generativ sun’iy intellekt asosida bo‘lajak muhandislarning adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi zamonaviy ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Tahlil qilingan metodlar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt integratsiyasi orqali talabalarning o‘quv jarayoni an’anaviy bilim olishdan interaktiv, ijodiy va muammoli vaziyatlarni hal qilishga yo‘naltirilgan ta’lim modeliga o‘tadi. Ushbu texnologiyaning afzalliklari yuqori faollik va talabalarni jalb qilishdan iborat. Bu talabalarga ushbu qarorni tushunish imkonini beradi, vazifalarga turli nuqtai-nazarlardan kelib chiqib birgalikda ishlashi ko‘p hollarda individual ishlashdan ko‘ra yaxshiroq natijalar berishi mumkin. Bu ular o‘rganishi mumkin bo‘lgan narsalarni yanada kengroq tushunishadi.

Generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish - bu shaxsiy salohiyatni ochishga, innovatsion tafakkurni shakllantirishga, mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan murakkab, ammo samarali o‘quv jarayonidir. Bunday texnologiya orqali nafaqat nazariy bilimlar, balki zamonaviy muammolarga ilmiy va kreativ yechim topish malakalari ham rivojlanadi. Bu esa milliy muhandislik ta’limining global raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobи “**Generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasining tajriba-sinov ishlari va samaradorlik tahlili**” deb nomlanib, unda pedagogik tajriba-sinov ishlarni tashkil etish va o‘tkazish metodikasi, oliy ta’lim muassasalarida talabalarida “Loyixalash jarayonlarini avtomatlashtirish asoslari” va “Kompyuter loyihalash” fanlari vositasida generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha baholash mezonlari va darajalari, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining miqdor va sifat tahlillari keltirilgan.

Tajriba-sinov ishlari 2022-2025 o‘quv yillarda Jizzax politexnika instituti, Farg‘ona davlat texnika universiteti, Buxoro davlat texnika universiteti va Andijon

davlat texnika institutlarida olib borildi. Bunda jami 725 nafar talabalar jalb etilib, ular tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Shundan tajriba guruhi uchun 362 nafar, nazorat guruhi uchun esa 363 nafar talaba tanlab olindi. Tajriba-sinov ishlari aniqlovchi, shakllantiruvchi va yakunlovchi bosqichlarda olib borildi.

**Aniqlovchi bosqich.** Mazkur bosqichning maqsadi bo‘lajak muhandislarning kasbiy rivojlanganlik darajasini tashxis etishdir.

**Tajriba bosqichi.** Maqsad – avtomatlashtirilgan ta’lim muhitida bo‘lajak muhandislarning kasbiy rivojlangantirish metodikasini takomillashtirish;

**Umumlashtiruvchi bosqich.** Maqsad – barcha o‘tkazilgan tajriba sinov ishlarining yakunini chiqarish.

60712500 - Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining talabalarida generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni kasbiy rivojlanantirishning uchta daroji va shu darajalarning mezon va ko‘rsatkichlarini optimallashtirdik (1-jadvalga qarang).

### 1-jadval

#### Talabalarning natijalarini baholash mezonlari

Baholash darajalari va mezonlar	Mazmuni
A’lo (Intellekt)	Avtotransport vositalari va texnologik jihozlarning qismlari, detallari va yig‘ma birliklarining loyihasini tizimli yondashuv asosida avtomatlashtirilgan ravishda ishlab chiqishni takomillashtirish tizimlarini sintez qila oladi. Avtomobil transporti sohasida tajriba-konstrukturlik va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, axborot va imitatcion modellarni ishlab chiqish va tadbiq qila olish oid malakaga ega. Muhandislikka oid kompyuterning amaliy dasturlaridan foydalanish malakasiga ega. Muhandislikka doir kompyuterning amaliy dasturlari va ta’lim platformalari yordamida loyihalar tayyorlash malakasiga ega.
Yaxshi (Adaptiv)	Avtotransport vositalari va texnologik jihozlarni ishchi qismlari parametrlari va ishlash qobiliyatini zamonaviy hamda xorijiy usullar bilan diagnostikalash, sinovlarni o‘tkazish tizimlarini sintez qila oladi. Avtotransportdan foydalanish jarayonida loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish usullariga oid ko‘nikmaga ega. Amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy metodologiyalarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyoragarlik ixtisosligiga mos ravishda qo’llash ko‘nikmaga ega. Muhandislikka oid kompyuterning amaliy dasturlari va ta’lim platformalari yordamida sodda loyihalar tayyorlay oladi.
Qoniqarli (Reproduktiv)	Transport vositalari va texnologik jihozlarning tuzilishi, texnologik ish jarayonlari, sozlash texnologiyalarini, ishga tayyorlash va ulardan foydalana olish tizimlarini sintez qilishda qiynaladi. Avtotransport vositalarini ishlab chiqarish va qayta tiklash texnologiyalaridan foydalana bilish usullariga oid qisman bilimga ega. Fanga oid manbalarni global internet tarmog‘idan topishda qiynaladi. Muhandislikka dir kompyuterning amaliy dasturlaridan foydalanish bo‘yicha bilimga ega. Ammo muhandislikka oid kompyuterning amaliy dasturlari va ta’lim platformalari yordamida loyihalar tayyorlay olmaydi.

Bu mezonlar tajriba guruhida “Loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirish asoslari” fani bo‘yicha o‘tkazilgan innovatsion test topshiriqlari, keys topshiriqlari va intellektual topshiriqlarini baholashda hisobga olinib, uning bajarilishini tahlil qilish ixtisoslik fanlarini muhandislik o‘yinlari metodikasi asosida o‘qitishda

bo‘lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirishning samaradorligini aniqlash imkonini berdi.


Jizzax politexnika instituti, Farg‘ona davlat texnika universiteti, Buxoro davlat texnika universiteti va Andijon davlat texnika institutlarida olib borilgan tajriba-sinov ishlari bo‘yicha talabalarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va ularning tahlillariga alohida to‘xtalib o‘tildi. Shulardan kelib chiqib, tahlil natijalarini umumlashtirib, umumiy xulosaga kelish uchun 2-jadvalga e’tibor qaratamiz.

## 2-jadval.

### Tajriba-sinov ishlari olib borilgan OTMlarda bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha tajriba sinov ishlaring natijalari

Ta’lim muassasasi nomi	O‘zlash-tirish ko‘rsatkichi	Tajriba-sinov guruhlari				Nazorat guruhlari			
		Tajriba boshida		Tajriba oxirida		Tajriba boshida		Tajriba oxirida	
		talaba soni	foiz	talaba soni	foiz	talaba soni	foiz	talaba soni	foiz
OTMlar boyicha jami	Yuqori	29	8,0	84	23,2	23	6,3	38	10,5
	O‘rta	114	31,5	176	48,6	106	29,2	128	35,3
	Past	219	60,5	102	28,2	234	64,5	197	54,3
	<b>Jami</b>	<b>362</b>	<b>100%</b>	<b>362</b>	<b>100%</b>	<b>363</b>	<b>100%</b>	<b>363</b>	<b>100%</b>

Tajriba-sinov guruhlarda qatnashgan jami 362 nafar talabalarning tajriba-sinov ishlari boshida o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari: 29 nafar (8%) talabada yuqori daraja, 114 nafar (31,5%) talabada o‘rta daraja, 219 nafar (60,5%) talabada past daraja qayd etilgan bo‘lsa, tajriba oxiriga kelib 84 nafar (23,2%) talabada yuqori daraja qayd etilgan va 15,2%ga oshgan, 176 nafar (48,6%) talabada o‘rta daraja qayd etilgan va 17,1%ga oshgan, 102 nafar (28,2%) talabada past daraja qayd etilib 32,3%ga kamayganligini ko‘rsatdi(8-rasm).



**8-rasm. Tajriba-sinov ishlari olib borilgan barcha OTMlarda bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba sinov ishlari natijalari diagrammasi**

Nazorat guruhlarida qatnashgan jami 363 nafar talabalarining tajriba-sinov ishlari boshida o'zlashtirish ko'rsatkichlari: 23 nafar (6,3%) talabada yuqori daraja, 106 nafar (29,2%) talabada o'rta daraja, 234 nafar (64,5%) talabada past daraja qayd etilgan bo'lsa, tajriba oxiriga kelib 38 nafar (10,5%) talabada yuqori daraja qayd etilgan va 5,2%ga oshgan, 128 nafar (35,3%) talabada o'rta daraja qayd etilgan va 6,1%ga oshgan, 197 nafar (54,3%) talabada past daraja qayd etilib 10,2%ga kamayganligini ko'rsatdi

Yuqoridagi jadval natijalariga asoslangan holda, bo'lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish ko'rsatgichlari bo'yicha samaradorligini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari to'g'risida tajriba va nazorat guruhidagi o'rtacha o'zlashtirishlarini Styudent va Pirsonning  $\chi^2$  (Xi kvadrat) matematik-statistika metodi yordamida tahlil etdik. Yuqoridagi jadval asosida respondentlarning tajriba guruhidagi va nazorat guruhidagi o'zlashtirishlari samaradorligini ko'rsatuvchi  $N_1$  gipoteza va unga zid bo'lgan  $N_0$  gipotezani tanlaymiz va o'zlashtirishi natijalarini quyidagi jadvalda aks ettiramiz:

**3-jadval**  
**Tajribadan oldin bo'lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish ko'rsagichlarini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishi ko'rsatkichlari**

Guruhan (tajriba boshida)	Daraja ko'rsatkichlari (son hisobida)		
	Yuqori	O'rta	Past
Tajriba guruhi ( $n_1= 362$ nafar)	29	114	219
Nazorat guruhi ( $n_2=363$ nafar)	23	106	234

**4-jadval.**  
**Tajribadan keyin bo'lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish ko'rsagichlarini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishi ko'rsatkichlari**

Guruhan (tajriba oxirida)	Daraja ko'rsatkichlari (son hisobida)		
	Yuqori	O'rta	Past
Tajriba guruhi ( $n_1= 362$ nafar)	84	176	102
Nazorat guruhi ( $n_2= 363$ nafar)	38	128	197

Tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari va respondentlar sonini mos ravishda  $X_{i;n_i}$  lar va shu kabi nazorat guruhidagini esa  $Y_{j;n_j}$  lar orqali belgilab olib, quyidagi statistik guruhlangan variatsion qatorlarga ega bo'lamiz, shuningdek, yuqori ko'rsatkichni 3 ball bilan, o'rta ko'rsatkichni esa 2 ball bilan va past ko'rsatkichni 1 ball bilan belgilaymiz.

Tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari va respondentlar sonini mos ravishda  $X_{i;n_i}$  lar va shu kabi nazorat guruhidagini esa  $Y_{j;n_j}$  lar orqali belgilab olib, quyidagi statistik guruhlangan variatsion qatorlarga ega bo'lamiz, shuningdek, yuqori ko'rsatkichni 3 ball bilan, o'rta ko'rsatkichni esa 2 ball bilan va past ko'rsatkichni 1 ball bilan belgilaymiz.

Tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatgichini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$f = 100 - (K_{usb} - K_{bdb}) \cdot 100 = 100 - (1,237 - 0,364) \cdot 100 \\ = 100 - 0,873 * 100 = 12,70 \%$$

Olingen natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezonining birdan kattaligi va bilish darajasining baholash mezoni noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba guruhidagi o'zlashtirish nazorat guruhidagi o'zlashtirishdan 12.7 foizga yuqori ekan. Demak, bo'lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish ko'rsagichlarini bo'yicha samaradorligini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samaradorligi statistik tahlildan ma'lum bo'ldi.

## UMUMIY XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda generativ sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalangan holda bo'lajak muhandislarning adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi nazariy, metodik va amaliy jihatdan asoslab berildi. Olib borilgan tahlillar, xorijiy tajribalar o'rganilishi va pedagogik tajriba-sinov ishlari quyidagi umumiyl natijalarni ko'rsatdi:

1. Generativ sun'iy intellektning ta'limdagi o'rni va imkoniyatlari aniqlanib, muhandislik ta'limi uchun u nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki loyihalash jarayonlarini modellashtirish, muqobil yechimlarni ishlab chiqish, ijodiy yondashuvni kuchaytirish va talabalarni mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatish vositasi sifatida samarali ekani isbotlandi.

2. Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatdiki, rivojlangan mamlakatlarda generativ sun'iy intellekt muhandislik ta'limida keng qo'llanilmoqda va bu jarayon o'quv jarayonini shaxsiylashtirish, talabalarning kompetensiyalarini tabaqalashtirilgan holda rivojlantirish, hamda kasbiy ko'nikmalarni tezkor shakllantirish imkonini bermoqda. Bu esa O'zbekiston sharoitida ham adaptiv loyihalash kompetensiyasini shakllantirishda ushbu yondashuvni tatbiq etish zarurligini ko'rsatadi.

3. Adaptiv loyihalash kompetensiyasining tarkibiy tuzilishi va xususiyatlari aniqlanib, uning bilim, ko'nikma, ijodiy fikrlash, refleksiya va texnologik savodxonlik komponentlari o'zaro uzviy bog'liq ravishda rivojlanishi muhandislik faoliyati samaradorligini ta'minlashi isbotlandi.

4. Metodik-kontseptual asoslar ishlab chiqilib, adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishda ta'sir etuvchi omillar – talabalarning shaxsiy motivatsiyasi, ta'lim muassasasi resurslari, professor-o'qituvchilar kompetensiyasi, generativ sun'iy intellektdan foydalanish madaniyati va amaliy mashg'ulotlarning sifati asosiy mezonlar sifatida belgilandi. Shuningdek, kompetensiya rivojlanishining darajalari (A'lo, yaxshi va qoniqarli) ko'rsatib berildi.

5. Generativ sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan model bo'lajak muhandislarning adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishda nazariy va amaliy bog'liqlikni ta'minlovchi kompleks tizim sifatida asoslandi. Modelda ta'lim jarayonining maqsad, vazifa, mazmun, metod, vosita va natija kabi tarkibiy qismlari o'zaro mantiqiy aloqadorlikda integratsiyalashgan holda ifodalandi.

6. Texnologiyani takomillashtirish jarayonida generativ sun'iy intellekt yordamida adaptiv loyihalash vazifalarini bosqichma-bosqich amalga oshirish: muammoni qo'yish, variantlarni ishlab chiqish, optimal yechimni tanlash, amaliyotda sinovdan o'tkazish va refleksiya bosqichlari aniqlandi. Ushbu bosqichlar talabalarni nafaqat tayyor bilimlarni qabul qilishga, balki mustaqil muhandislik qarorlarini shakllantirishga undashi aniqlandi.

7. Pedagogik tajriba-sinov ishlari generativ sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan metodika samaradorligini amaliy jihatdan tasdiqladi. Tajriba natijalariga ko'ra, talabalar adaptiv loyihalash kompetensiyasining barcha tarkibiy komponentlari (Kasbiy bilim, amaliy-ko'nikma, ijodiy-innovatsion, kommunikativ, tizimli-mantiqiy, moslashuvchan-adaptiv) an'anaviy ta'lim usullari bilan taqqoslaganda sezilarli darajada rivojlanganligi kuzatildi.

8. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, generativ sun'iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan texnologiya muhandislik ta'limi sifatini oshirish, bo'lajak muhandislarning kasbiy moslashuvchanligini ta'minlash va ularni zamonaviy ishlab chiqarish talablariga tayyorlashda yuqori samaradorlikka ega.

### **Tavsiyalar:**

1. OTMlarda raqamlashtirilgan ta'lim muhitini takomillashtirish uchun virtual laboratoriylar, simulyatsiya dasturlari va masofaviy boshqaruva platformalarini keng joriy etish lozim. Bu talabalarning ishlab chiqarish jarayonlariga yaqin sharoitda tayyorgarligini ta'minlaydi.

2. Dissertatsiya doirasida yaratilgan web platformasini takomillashtirib, uni boshqa muhandislik yo'nalishlariga ham moslashtirish va keng joriy etish tavsiya qilinadi. Bu platformalar talabalarni mustaqil ta'lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga keng jalb qiladi.

3. Germaniya, Janubiy Koreya, AQSH kabi davlatlarning raqamli ta'lim tajribalaridan foydalanib, Media "ACTP" texnologiyasi, "Project-based learning" va "Adaptive learning platformlari" kabi metodlarni muhandislik ta'limiga tatbiq etish zarur.

4. "Loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirish asoslari", "Kompyuter loyihalash" kabi darsliklar asosida zamonaviy interaktiv o'quv resurslarini yaratish, ularga AR/VR texnologiyalarini integratsiya qilish va talabalarni multimedia muhitida o'qitish tavsiya qilinadi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ  
СТЕПЕНЕЙ PhD.26/27.02.2020.T.109.01 ПРИ САМАРКАНДСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ АРХИТЕКТУРНО-СТРОИТЕЛЬНОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**КУЛМУРАДОВ ДИЛШОД ИСТАМОВИЧ**

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ АДАПТИВНОЙ  
ПРОЕКТИРОВОЧНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ С  
ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ГЕНЕРАТИВНОГО ИСКУССТВЕННОГО  
ИНТЕЛЛЕКТА**

**13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (технические науки)**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора (DSc) по педагогическим наукам**

**Самарканд – 2025**

Тема доктора наук (DSc) зарегистрирована под номером В2025.4.DSc/Ped1298 в Высшей Аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Наманганском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Ученого совета ([www.samdaqu.edu.uz](http://www.samdaqu.edu.uz)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNET» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) ).

Научный консультант:

Химматалиев Дустназар Омонович  
доктор педагогических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Рахимов Зокир Тоштемирович  
доктор педагогических наук, профессор

Кузиев Абдумурод Уракович  
доктор технических наук (DSc), доцент

Муслимов Шерзод Нарзулла угли  
доктор педагогических наук, доцент

Ведущая организация:

Ташкентский государственный транспортный  
университет

Защита диссертации состоится “23” декабря 2025 года в “14 00” часов на заседании Научного совета PhD.26/27.02.2020.T.109.01 по присуждению научных степеней при Самаркандском государственном архитектурно-строительном университете, (Адрес: 140147, город Самарканд, ул.Лолазор, 70. Тел: (+99866) 237-15-93, факс (+998662) 237-26-30; e-mail: [samdaqu@edu.uz](mailto:samdaqu@edu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного архитектурно-строительного университета (Зарегистрирована под номером 249). Адрес: 140147, город Самарканд, ул.Лолазор, 70. Тел: (+99866) 237-15-93, факс (+998662) 237-26-30; e-mail: [samdaqu@edu.uz](mailto:samdaqu@edu.uz)

Автореферат диссертации разослан “4” декабря 2025 года  
(Протокол реестра №18 от “5” декабря 2025 года).



С.М.Бобоев  
Председатель разового Научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
доктор технических наук, профессор

Р.М.Махмудов  
Ученый секретарь разового Научного  
совета по присуждению учёных степеней,  
кандидат технических наук, доцент

Ш.З.Тайланова  
Председатель разового Научного  
семинара при разовом Научном совете  
по присуждению учёных степеней,  
доктор педагогических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Во всём мире на сегодняшний день стремительное развитие цифровых технологий и проникновение генеративных систем искусственного интеллекта (ГИИ) (ChatGPT, DALL-E, Midjourney и другие) в сферу образования положили начало коренному, качественно новому этапу в инженерном образовании. Технологии ГИИ создают ранее не существовавшие возможности не только для автоматизации инженерных процессов, но и для формирования у студентов способностей к творческому мышлению, адаптивному проектированию и нестандартному решению проблем. В практике развитых стран эти технологии успешно применяются в инженерных программах для внедрения адаптивных систем обучения, разработки методов преподавания, соответствующих индивидуальным особенностям студентов, и развития компетенций в проектировании с использованием современных средств. Технический университет Мюнхена (TUM, Германия), университет Карнеги-Меллона (США) и другие престижные образовательные учреждения активно применяют инструменты генеративного искусственного интеллекта при обучении инженерному проектированию в своих программах. Этот процесс играет важную роль в развитии проектировочной компетенции будущих инженеров, инновационном решении проблем и развитии навыков работы с современными технологиями.

Во всём мире для специалистов в области инженерии проектировочная компетенция требует новых подходов в соответствии с требованиями XXI века. В ситуации, когда традиционные методы обучения перестали соответствовать темпам современного технологического развития, возникает необходимость организации учебного процесса, адаптированного к индивидуальным возможностям и скорости обучения каждого студента с помощью адаптивных образовательных технологий. С помощью генеративного искусственного интеллекта в процессе проектирования существует возможность в реальном времени давать консультации, предлагать решения и немедленно исправлять ошибки. Эти технологии создают своеобразную педагогическую среду для повышения способности студентов к самостоятельной работе, обучения поэтапному решению сложных инженерных задач и подготовки к профессиональной деятельности. Также, посредством определения персонализированных образовательных траекторий, соответствующих уровню знаний, стилю обучения и интересам каждого студента, можно значительно повысить эффективность обучения.

В нашей стране в настоящий период, когда в условиях эпохи Нового Ренессанса уделяется особое внимание вопросам развития цифровой экономики и подготовки современных кадров, реформирование инженерного образования приобретает актуальное значение. На основе постановления Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» определена задача создания единой цепочки от образования до производства и подготовки специализированных кадров в

сфере информационных технологий. При реализации этих задач важное значение имеет внедрение технологий генеративного искусственного интеллекта в инженерное образование и создание системы развития адаптивной проектировочной компетенции будущих инженеров. В частности, наш президент Ш. Мирзиёев в августе 2024 года дал поручение ответственным лицам по созданию центра технологий искусственного интеллекта. Президент поставил задачу разработать стратегию внедрения искусственного интеллекта и двухлетнюю программу проектов. В октябре того же года было принято постановление президента «Об утверждении Стратегии развития технологий искусственного интеллекта до 2030 года». Данное исследование вносит теоретический и практический вклад в достижение стратегических целей по применению инновационных педагогических технологий в системе высшего образования нашей страны, повышению уровня квалификации инженерных кадров и обеспечению качества образования в соответствии с мировыми стандартами.

Результаты данного диссертационного исследования в определённой степени служат реализации задач, определённых в Указе Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 28 апреля 2020 года № ПП-4699 «О мерах по широкому внедрению цифровой экономики и электронного правительства», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 6 октября 2020 года № ПП-4851 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования в сфере информационных технологий, развитию научных исследований и их интеграции с ИТ-индустрией», Указе Президента Республики Узбекистан от 1 апреля 2021 года № УП-6198 «О совершенствовании системы государственного управления в сфере развития научной и инновационной деятельности», Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 21 июня 2022 года № ПП-289 «О мерах по повышению качества педагогического образования и дальнейшему развитию деятельности высших образовательных учреждений по подготовке педагогических кадров», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 6 июля 2022 года № ПП-307 «О мерах по реализации Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022–2026 годы», а также других нормативно-правовых документов.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в Республике Узбекистан – I. «Пути формирования и реализации системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

**Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации.** Научные исследования по развитию компетенции будущих инженеров в адаптивном проектировании с помощью генеративного искусственного интеллекта в образовательном процессе проводились современными исследованиями в ведущих научных центрах и высших учебных заведениях мира, в частности:

Научные исследования, связанные с вопросами совершенствования системы подготовки инженеров в технических высших учебных заведениях и развития адаптивной проектировочной компетенции будущих инженеров, ведутся в ведущих научных центрах и высших учебных заведениях мира, в частности, в Калифорнийском технологическом институте (США), Технологическом институте Карлсруэ (Германия), Индийском технологическом институте Дели (IIT Delhi) (Индия), Кембриджском университете (Англия), Политехническом университете Турине (Италия), Киотском университете (Япония), Технологическом университете Северного Китая (Китай), KAIST – Корейском институте передовой науки и технологий (Республика Корея), Университете ИТМО (Россия).

В результате проведённых в мире исследований, посвящённых развитию адаптивной проектировочной компетенции будущих инженеров с помощью генеративного искусственного интеллекта, в частности, была совершенствована методика использования дистанционного обучения при подготовке инженеров (Калифорнийский технологический институт); разработаны механизмы использования цифровых технологий при развитии логического и креативного мышления будущих инженеров по профессиональным дисциплинам, а также совершенствование их самостоятельного обучения (Технологический институт Карлсруэ); уточнены формы, методы и средства использования учебных средств с дидактическим обеспечением при подготовке будущих инженеров, в том числе специалистов по автоматизации и управлению производственными процессами (Индийский технологический институт Дели); совершенствована методика использования интеграции кейс-заданий и цифровых учебных средств при подготовке инженеров (Кембриджский университет); разработана с помощью генеративного искусственного интеллекта методика развития адаптивной проектировочной компетенции инженеров (Политехнический университет Турине); совершенствована методическая система подготовки инженеров на основе систем искусственного интеллекта (Киотский университет); разработаны механизмы использования виртуальных образовательных технологий в методике преподавания инженерных дисциплин и развитии инженерных компетенций студентов (Технологический университет Северного Китая); в области логического и алгоритмического мышления в программировании, а также в области искусственного интеллекта, smart manufacturing, mechatronics одним из сильнейших университетов Азии является KAIST — Корейский институт передовой науки и технологий; уточнены механизмы использования образовательных порталов и образовательных веб-сайтов по искусственноому интеллекту и цифровым

системам, созданных в сотрудничестве с Массачусетским технологическим институтом (Университет ИТМО).

В мире по развитию адаптивной проектировочной компетенции будущих инженеров с использованием генеративного искусственного интеллекта ведутся исследования по следующим приоритетным направлениям: внедрение учебных моделей, основанных на технологиях генеративного дизайна и топологической оптимизации; обучение средам CAD/CAE, интегрированным с искусственным интеллектом, в частности развитие навыков создания генеративных моделей и их симуляции на таких платформах, как SolidWorks, Fusion 360, Catia и Siemens NX; формирование компетенций, основанных на технологии AI-Driven Digital Twin (цифровой двойник); совершенствование методики обучения использованию цифровых технологий в управлении процессами.

**Степень изученности проблемы.** В нашей стране в системе высшего образования проведён ряд научных исследований, посвящённых вопросам внедрения цифровых образовательных технологий в процесс подготовки специалистов различных отраслей, эффективного использования информационно-коммуникационных средств, а также расширения возможностей обучения на основе искусственного интеллекта. В частности, исследования в данном направлении были всесторонне изучены Г. С. Эргашевой, М. Х. Лутфиллаевым, М. М. Ариповым, Т. Т. Калекеевой, М. Р. Файзиевой, З. Ботировой, Б. А. Умаровым, Ж. Каршиевым, Ш. Мусурмоновой, А. С. Ахадовой и Э. Д. Имомназаровым, и их научные взгляды служат важным источником при определении теоретических основ цифрового образования, его практических средств и перспективных направлений в образовательном процессе<sup>4</sup>.

В странах Содружества Независимых Государств (СНГ) исследования по внедрению средств искусственного интеллекта в образовательный процесс и

---

